MARKAZIY OSIYO YURAGI – YANGI O‘ZBEKISTON – TARIX, DIN, MADANIYAT VA AN'ANALAR DAVOMCHISI

Maxmanazarova Malika Anvarovna
O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
osiyoazizovna@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlarining jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, ularning nechog‘lik dunyo tamaddunida faol ishtiroki, geosiyosiy o‘rni va buyuk makon ekanligi xaqida yoritilgan. Shuningdek, maqolada mintaqaning bugungi global makonda tutgan o‘rni, zimmasidagi buyuk vazifalari, yetakchilik mavqeini saqlab qolish ma'suliyati xususida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonning Mintaqa ijtimoiy hayotida faol ishtiroki keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: integrasiya, yaxlit xavfsizlik, mintaqa, tamaddun beshigi, oltin xalqa, landshaft, etnik an'analar.

Аннотация. В данной статье освещаются роль государств Центральной Азии в мировом сообществе, степень их активного участия в мировой цивилизации, геополитическое положение и значение региона как уникального историко-географического пространства. Также в статье представлены размышления о месте региона в современном глобальном мире, возложенных на него великих задачах и ответственности за сохранение лидирующих позиций. Наряду с этим широко освещается активное участие Нового Узбекистана в общественной жизни региона.

Ключевые слова: интеграция, целостная безопасность, регион, колыбель цивилизации, золотое звено, ландшафт, этнические традиции.

Annotation. This article highlights the role of Central Asian states in the international community, the extent of their active participation in global civilization, their geopolitical significance, and the importance of the region as a unique historical and geographical space. It also presents reflections on the region's position in today's global world, the major responsibilities it bears, and its duty to maintain its leading position. Furthermore, the active participation of New Uzbekistan in the region's social life is discussed in detail.

Keywords: integration, comprehensive security, region, cradle of civilization, golden link, landscape, ethnic traditions.

DOI: 10.5281/zenodo.24240597

«O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi»[1]

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 18-modda)

Asosiy qism. Markaziy Osiyo – qadimdan turli xalqlar, madaniyatlar, dinlar va sivilizatsiyalar uchrashgan tarixiy makondir. O‘zbekiston esa, bu tarixiy makonning bugungi yo‘lboshchisi deyishimiz mumkin. Darhaqiqat, O‘zbekiston o‘zining katta aqliy va jismoniy salohiyatini namoyon etayotgan, dunyo maydonlarida o‘z fikri, o‘z yo‘lini qo‘rqmay ko‘rsatayotgan, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ham tubdan isloh qilishga qodir, yangi imkoniyatlarga ega bo‘lgan mamlakatdir. Bejizga konstitutsiyamizda: *«O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir.*

O‘zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi» [2] deyilmagan.

Bugungi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston hududlari o‘tmishda savdo-sotiq, ilm-fan, hunarmandchilik va madaniy aloqalar rivojlangan mintaqaning muhim qismlari bo‘lgan. Ushbu hududlarni bir-biri bilan bog‘lab turgan omillar faqat geografik yaqinlik emas, balki umumiy tarix, qadriyatlar, an'analar va iqtisodiy munosabatlar hamdir. VII asrdan boshlab, qariyb XVI asrgacha dunyo tarixini belgilagan, din ilmini yoygan, madaniyat beshigini tebratgan, an'analar zanjirini oltin xalqalar ila birlashtirgan Markaziy Osiyo asri bo‘lib kirdi jaxon saxniga. Bu davr o‘zining buyuk shaxslarini Markaziy Osiyo mintaqasi orqali insoniyat kundaligiga muxrladi. Buyuk allomayu-ulamolar, sarkardalar, olimlar, shoiru-fuzalolarni o‘z bag‘rida tarbiyalab, jaxonga ularning ilmi orqali ziyo baxsh etdi.

Markaziy Osiyo qoq markazida o‘n sakkiz asr davomida insonlar o‘rtasida qadriyatlar almashinuvi yuz berganini namoyon etadi. Bu holat uning tarkibiy qismlaridagi me'morchilik, yodgorliklar, shaharsozlik, landshaftlar, san'at va texnologiyalarda o‘z aksini topgan. Ularda turli madaniyatlar, etnik an'analar, e'tiqodlar va texnologiyalar ham alohida, ham bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyoni bog‘laydigan eng muhim tarixiy omil bu – Buyuk ipak yo‘lidir. U bitta yo‘ldan emas, balki Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa hududlarini bog‘lagan ko‘plab savdo yo‘nalishlaridan iborat bo‘lgan [3]. Mintaqa –

tarixdagi eng faol savdogarlardan bo‘lgan sug‘dlar ravnaq topgan makon edi. Ushbu yo‘laklarni nazorat qilish Sug‘d, Parfiya, Sosoniylar, Temuriylar va Saljuqiylar kabi Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liq yirik davlatlar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Buyuk savdo yo‘llarining bu mintaqadan o‘tganligi turli yo‘nalishlardan keluvchi boshqa yo‘laklarni bir-biri bilan bog‘ladi. Chunki bu yo‘laklar uzoq masofali savdo va madaniyat almashinuvining asosiy tayanch nuqtalaridan hisoblangan.

Savdo yo‘llari orqali Sharq va G‘arbdan ko‘plab mahsulotlar, qimmatbaho sovg‘alar bilan bir qatorda, ilm-fan, madaniyat, millatlar, xalqlar kirib kelgan. Shuningdek, mahalliy aholi ishlab chiqargan, uzoq o‘lkalardagi insonlarning talabini qondirgan zaruriy mahsulotlar ham bu yerdan olib chiqilgan.

Shu bilan birga, bilimlar, diniy qarashlar, texnologiyalar va madaniy an'analar ham tarqalgan. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatida ham o‘zaro o‘xshash jihatlar ko‘p. Mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, oilaviy qadriyatlar, hashar, hunarmandchilik va milliy bayramlarni nishonlash shular jumlasidandir. Xususan, Navro‘z bayrami mintaqaning turli xalqlarida o‘ziga xos shakllarda nishonlanib, bahor, yangilanish va ezgulik g‘oyalarini ifoda etadi. Har bir xalqning o‘z tili, adabiyoti, musiqasi, milliy taomlari va tarixiy tajribasi mavjud. Shuning uchun Markaziy Osiyoning umumiy madaniy merosini o‘rganish xalqlarning o‘ziga xosligini inkor etish emas, balki ular o‘rtasidagi aloqalarni yaxshiroq tushunish demakdir.

Bugungi kunda ham xalqaro transport yo‘laklari, temir yo‘llar, avtomobil magistrallari va logistika markazlari orqali Markaziy Osiyoning jahon bozorlari bilan aloqalarini rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Albatta, zamonaviy transport tizimi qadimgi karvon yo‘llarining aynan takrori emas. Biroq ularning umumiy vazifasi o‘xshash: hududlarni bog‘lash, tovarlar harakatini ta'minlash va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish. Bugun madaniy festivallar, qo‘shma ko‘rgazmalar, universitetlar o‘rtasidagi hamkorlik va sayyohlik dasturlari xalqlarning bir-birini yaqinroq tanishiga xizmat qilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va boshqa tarixiy markazlar mintaqaning umumiy tarixini namoyon etuvchi muhim maskanlardir. Mustaqillikdan keyin Markaziy Osiyoning har bir davlati o‘z taraqqiyot yo‘lini tanladi. Shu bilan birga, geografik yaqinlik, tarixiy aloqalar va o‘zaro iqtisodiy manfaatlar mintaqaviy hamkorlikning ahamiyatini saqlab qoldi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida bir qator umumiy vazifalar mavjud:

Birinchidan, savdo va transport aloqalarini rivojlantirish. Chegaradan o‘tish jarayonlarini yengillashtirish, transport infratuzilmasini yaxshilash va logistika tizimlarini muvofiqlashtirish mintaqaviy savdoga yordam beradi.

Ikkinchidan, suv va energetika sohalarida hamkorlik qilish. Amudaryo va Sirdaryo havzalari mintaqaning qishloq xo‘jaligi, aholi turmushi va energetikasi uchun muhimdir. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni birgalikda hal qilish va o‘zaro manfaatlarni hisobga olish barqaror taraqqiyot uchun zarur.

Uchinchidan, madaniy va ilmiy aloqalarni kuchaytirish. Tarixiy yodgorliklarni asrash, qo‘shma arxeologik tadqiqotlar o‘tkazish, talabalar almashinuvi va ilmiy anjumanlarni tashkil etish mintaqaning intellektual salohiyatini oshiradi.

To‘rtinchidan, turizmni rivojlantirish. Qadimiy shaharlar, tarixiy obidalar va milliy an'analar asosida umumiy turistik yo‘nalishlar yaratish mumkin. Bu nafaqat madaniy merosni targ‘ib qiladi, balki yangi ish o‘rinlari va iqtisodiy imkoniyatlarni ham vujudga keltiradi.

Jahon bankining Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka bag‘ishlangan materiallarida ham transport, suv, energetika va savdo sohalaridagi hamkorlik iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ekani ta'kidlanadi.

Ammo, rivojlanish, madaniy, savdo aloqalarining shakllanishi bilan bir qatorda ayrim muammolar va mavjud yaqinlikka raxna soluvchi kuchlarning ham yo‘qligi sir emas, albatta. Bu holat bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelayotganida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin. Shu o‘rinda hurmatli *Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning: “Bizning mintaqamiz xalqlarini ming yillik qardoshlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lab turadi. Bizni tarix, din, umumiy madaniyat va an'analar birlashtiradi. Yevroosiyoning “yuragi”da joylashgan mintaqamiz Yevropa va Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib, Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan chegaradoshdir. Mintaqamiz tabiiy resurslarga boy, bu yerda ko‘plab mamlakatlar va butun mintaqalar rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyati mavjud. Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etmoqda”*[4] – degan so‘zlarida anchayin katta va yaqqol ko‘rinib turgan xaqiqat borligini ko‘rish mumkin. O‘tmishdan ma'lumki biz, yo‘limizda uchragan barcha qiyinchiliklarni yengib, o‘z istiqloli va istiqboliga qat'iy ishongan, eng og‘ir kunlarda ham imon-e'tiqodi bilan ish tutgan, turli ig‘vogarliklaru safsatabozliklarga uchramagn, ularga ergashmagan xalqmiz. O‘zining mislsiz irodasi, yaratuvchilik

kuch-qudrati va taqdiriga kafolat bergan davlatga ishonchi tufayli bugun istiqlol yo‘lidan qat'iyat bilan borayotgan buyuk millatmiz.

Bugungi Yangi O‘zbekiston – yangidan-yangi imkoniyatlarni namoyon etayotgan, kuchga to‘lib, nufuzi oshib borayotgan mamlakat. Yangiliklar, yangilanishlar, imkoniyatlar uchun barcha sharoitlar mavjud bo‘lgan, mustahkam tizimga asoslangan hokimiyat yaratyapmiz. Bu davlat va xalq o‘rtasidagi birlik, xalqning fikri davlat uchun muhim bo‘lgan siyosiy mushtaraklikdir.

“O‘zbekiston qat’iyat va shiddat bilan olg‘a intilmoqda. U yangi asr, yangi mingyillik ostonasida mudrab yo hayol surib turgani yo‘q. Aksincha, u intilyapti, harakat qilyapti, kurashyapti. O‘z taqdiri, buyuk kelajagini yaratish yo‘lida zahmat chekyapti. Quvonchli, huzurbaxsh va yoqimli iztiroblar og‘ushida yashayapti”[5, 181]. Bu so‘zlar shunchaki balandparvoz gaplar emas. Bu yo‘llarni O‘zbekiston chin ma’noda kurashib, tish-tirnog‘i bilan bosib o‘tmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 18-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, IV bob, 17-modda.
3. Oxford Research Encyclopedia of Asian History. The Classical Silk Road: Trade and Connectivity across Central Asia, 100 BCE–1200 CE.
4. Mirziyoyev Sh.M. Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar xalqaro konferensiyasidagi nutq. 2021-yil 16-iyul. https://president.uz/en/lists/view/4484?utm.
5. Narzulla Jo‘rayev. “Tarixiy davr kashfiyoti” 2023. “Universitet” nashriyoti, -T., 2023.